

OGAHIYNING “ZUBDATU-T-TAVORIX” AYRIM TOPONIMLARINING IZOHI

Qodirova Guli Marselovna

UrDPI, O‘zbek va rus tili adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

+998 88 600 92 22

gulimarselovna@gmail.com

Ganjayea Anabibi

UrDPI, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

+998 94 391 02 04

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” asarini toponimlarni onomastikasini o‘rganish maqsad qilib olingan. Asarning o‘rganilish tarixi, undagi ayrim geografik atamalar izohlab keltirilgan. Har bir atama izohida uning kelib chiqishi, asarda nechta o‘rinda qo‘llanilganligi, hozirdagi o‘rni haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar : Toponim, onomastik birlik, ogahiyshunoslik, etnografiya, “Zubdatu-t-tavorix”, izoh, qo‘lyozma, eskirgan so‘z, arxaik so‘z, afsona.

Аннотация: В этой статье рассматривается работа Огахи “Зубдату-т-таворих” с целью изучения ономастики топонимов. История изучения произведения, некоторые географические термины в нем изложены аннотированно. Аннотация каждого термина содержит информацию о его происхождении, о том, во сколько раз он был использован в работе, какое место он занимает в настоящее время.

Ключевые слова: топоним, ономастическая единица, ономастика, этнография, “Зубдату-т-таворих”, аннотация, предисловие, устаревшее слово, архаичное слово, миф

Abstract: In this article, Ogahi's "Zubdatu-t-tavorix" is intended to study the onomastics of toponyms. The history of the study of the work, some geographical terms in it are explained. The footnote of each term details its origin, how many places it is used in the work, its place now.

Key words: toponym, onomastic unit, ethnography, "Zubdatu-t-tavorix", annotation, putative, obsolete word, archaic word.

Ogahiy ijodini o'rganish, uning asarlarini tadqiq qilish bugungi kunda barcha izlanuvchi tilshunos va adabiyotshunoslarimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ogahiy asarlari nafaqat badiiy, ilmiy, tarixiy, balki, geografik va etnografik jihatdan ham mumtoz adabiyotimizda o'zining qiymatiga ega. Ma'lumki, O'zbek va umuman turkiy xalqlar nasri Ogahiygacha ham ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Nosiriddin Rabg'uziy, Mirxond, Xondamir, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Shermuhammad Munis kabi buyuk adiblarning narsiy va nazmiy merosi buning dalilidir. "Qissasi Rabg'uziy", "Ravzat us-safo", "Makorim ul-axloq", "Xabib us-siyar", "Boburnoma", "Firdavs ul-Iqbol" singari asarlar Ogahiyning badiiy-tarixiy nasri uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'lgani tarixiy ma'lumotlar orqali bizgacha yetib kelgan. Adib ijodini o'rganishda bugungi kungacha izlanishlar to'xtagani yo'q. R.Majidiy, S.Dolimov, A.Qayumov, Q. Munirov, F.G'anixo'jayev, A.Abdug'afurov, I.Haqqulov, N.Komilov, H.Abdullayev, N.Jabborov, N.Toshev kabi o'nlab taniqli olimlar, adabiyotshunoslar yaratgan risolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar alohida diqqatga sazovordir.

Ogahiy ijodidagi "Zubdatu-t-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") adabiyot, tarix, geografiya, etnografiya, lingvistika, onomastika kabi ko'plab fanlar rivojiga katta hissa qo'shgan asar hisoblanib, bugungi kunda adabiyotimiz tarixida alohida o'ringa egadir.

Bizgacha "Zubdatu -t- tavorix" ning besh qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida, yana biri Rossiya Milliy kutubxonasida, uchtasi

O‘zbekiston FA. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Dunyoda eng yirik toponimistlardan biri E.M.Mirzayev yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida geografik nomlarning, jumladan O‘zbekiston toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan, mahalliy geografik atamalar haqida ko‘plab qimmatli asarlar, maqolalar, monografiyalar, lug‘atlar yaratdian, 4 mingga yaqin xalq geografik atamalarini o‘z ichiga olgan lug‘ati (Slovar narodnix geograficheskix terminov. – M., 1984.) jahon toponimistlari va tilshunoslari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Toponimikani o‘rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Yozma manbaalarda qayd qilingan geografik nomlami keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug‘at tarkibida, so‘zlaming dastlabki shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlami kuzatishimiz tilshunoslik tarixi va uning riviji uchun katta hissa qo‘shadi

Ushbu maqolamizda asarda qo‘llanilgan onomastik birliklarga to‘xtalib o‘tamiz. Tilshunos toponimistlardan professorlar T.Nafasov, Z.Do‘simov, dotsent N.Oxunov O‘zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nomlanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo‘shdi va ko‘plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar. Atamaning talaffuzi, bugungi kundagi varianti, eskirgan yoki arxaik so‘zlarga aylangan yoki aylanmaganligini ,atamaning geografik, etnik va badiiy jihatlarini tahlilga tortdik.

“... va Andxu hokimining dag‘i peshkash va elchisi kelib, darbori oliy turobig‘a jabinsoylig‘ ko‘rguzdi”¹

Ushbu jumladan Rahimqulixonning Muhammadamin Inoq bilan birgalikda Marvga yurishida Andxuda to‘xtab o‘tilgani anglashiladi. “Andxu”- Shimoliy Afg‘onistondagi “Andxoy” (hozirgi kunda iste‘moldagi shakli) shahri bo‘lib, Mozori Sharifning g‘arbiy tomonida, Karkidan Janubiy Afg‘onistonga boradigan katta yo‘l ustida joylashgan. Bu joy o‘zining qadimiy tarixi va obidalariga ega

¹ “Zubdatu - T- Tavorix” Nurboy Jabborov. Toshkent. 2009.

hisoblanadi. Bu joy nomi asarda uch o‘rinda qo‘llanilgan bo‘lib, o‘zining badiiy-tarixiy qiymatiga egadir.

*“ Vardonzi tumanotining atrof-javonibin toxtu toz qilib, muonidlardin ko ‘b kishini qatlg‘a yetkurib, benihoyat o ‘ljag‘a mutasarrif bo ‘lub qaytib, tojik Xazorasp qal‘asin muhosara qilg‘ondin to‘rt kun so‘ng rabeus-soniy oyining o‘n oltisida, juma kuni daryo qanorig‘a kelib, Gurlan mabaridin ubur qildi”.*²

Bu yerda adib Rahimqulixonning lashkarlari uning ijozati bilan Vardonzi tumanini ishg‘ol qilib, ko‘pgina o‘ljaga ega bo‘lib qaytganliklarini yozgan. “Vardonzi”- hozirgi Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi “Qo‘rg‘oni Vardonzi” nomi bilan mashhur bo‘lgan xaroba. Tarixiy manbalarda yozilishicha, u Buxordan qadimiyroq, uni shoh Shopur bino qilgan. Buxoro vohasini Qozog‘iston va Sibir bilan bog‘lashda Vardonzining tarixiy roli katta. Akademik Y.G‘ulomovning arxeologik va etnografik kuzatishlari natijasida Vardonzining XIX asr ohirlarigacha obod savdo- hunarmandchilik shaharchasi bo‘lib kelganligi aytiladi. Bundan tashqari, shu jumlaning o‘zida bir nechta geografik atamani ko‘rsatib o‘tish mumkin, masalan, “Xazorasp qal‘asi”, “Gurlan” tumani nomlari ham kiritilgan.

*“Shanba kuni istirohat qilib, yakshanba kuni hazrat zilullohiyning farmoni bila otlanib, Gulbinbog ‘qaryasidag‘i bog‘i behishturog‘g‘akim , ul janobning Mulki xolisi erdi, iqboli rahnamunlig‘i bila borib nuzul etdi”.*³

Asarning “Ikkilonchi maqola” qismidan joy olgan bo‘lib, bu toponim hozirgi Xiva yaqinidagi qishloq. Gulbinbog‘da Rahimqulixon o‘zining qo‘nimgohi bo‘lgan. Xiva xonligi davrida Xiva shahri va uning yaqin atroflarida xonlarning o‘zlariga atab qurdirgan qo‘nimgohlar bo‘lgan va bu joylar so‘lim va obod bog‘ sifatida bugungi kungacha saqlanib kelinmoqda.

“Va bu voqeaning to‘rtlonchi kunikim, juma erdi, Mashhadi muqaddas hokimi Olloyorxonningkim, Osafuddavlag‘a mulaqqabdurur, Muhammad

² Yuqoridagi asar. 116-bet.

³ Yuqoridagi asar.117-bet.

Hakimxon va Muhammad Hasanbek Tabriziy otlig‘ ikki elchisi kelib, mazkur xonning ixlos va yakjihatlik mazmuni bila yibirgan arizadoshtin atabai sipehmartaba xodimlarining vasotati bila nazari kimyoasar mutolaasig‘a musharraaf qildilar”⁴.

Erondan yaxshi niyat bilan kelgan elchilardan, xonning ularga ko‘rsatgan iltifotlaridan Xiva xonligi boshqa mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni yaxshi olib brogan. “Mashhadi muqaddas”- Erondagi shahar, Xuroson ostonining ma‘muriy markazi bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha, Mirzo Shohrux saltanati zamonida iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. Bu shahardan kelgan ikki elchi xon huzuriga birdamlik, ahillik ruhida yozilgan xat keltirishadi.

“Hamul kun ul hazrat Oxak muzofotidin kelgan ulusidin o‘tamish va to‘qtamish tavoyifi cherikining akobir va asog‘irig‘a navozishlar ko‘rguzub, podshohona ziyofatlar va xusravona xilatlar berib, “va yanqolibu ila ahlihi masruo” karimasining fahvosicha mavotin va masokinlarig‘a muovadat qilmoq ruhsati bila masrur qilib, sarafrozlig‘ bag‘ishladi”⁵, -deydi Ogahiy.

“Oxal muzofoti”- bu joy hozirgi Turkmanistonga tegishli hudud hisoblanadi. Joy nomining eski ko‘rinishiga e‘tibor bersak, “Oxak” so‘zining “Oxal” sifatidagi talaffuzi ham o‘ziga xos ravishda lingvistik hodisaga uchraganini ko‘rishimiz mumkin. Gapdan O‘tamish va To‘qtamish kabi toifalar birligini, ular podshohning huzuriga fatvo istab kelgani, podshoh ularni mukofotlar bilan siylagni bayon etilgan.

“Va Anav va Kalot kadxudolari va Saraxs takasidin Xo‘jamshukur vs O‘roz Yog‘li boshliq jame akobir va aoliysi kelib, mulozamat sharafig‘a foyiz bo‘ldilar”⁶.

“Saraxs” atamasi asarning ikkinchi qismida , ya‘ni, Rahimqulixon taxtni egallagandan keyingi voqealar aks etgan qismida keltirilgan. “Saraxs”- Xurosonga qarashli shahar va viloyat nomi bo‘lib, hozirgi paytda shu nomad Eron va Turkmaniston hududlarida bir-biriga yaqin ikkita aholi maskani mavjud.

⁴ Yuqoridagi asar.73-bet.

⁵ “Zubdatu -T-Tavorix.Tarixlar sarasi”. Nurboy Jabborov. 2009. Toshkent. (70-bet)

⁶ Yuqoridagi asar, 109-bet

*“Va hamul kecha Xazoraspda mutavaqqif bo‘lib, tonglasi seshanba kuni taliai subhdin so‘ng mulozamatdag‘i hozir sipoh bila otlanib, Fitnak tarafig‘a yurish qildi. Tojik cherigi dag‘i Fitnakdin ko‘chub, Xazorasp sori ozim bo‘lmush erdi”.*⁷

“Fitnak”- bugungi kunda shevaga moslashib “Pitnak” holidi qo‘llaniladi. Xorazm viloyatidan baland Toshsaqo tepaliklari bilan ajratib qo‘yilgan. Janubda va janubi-g‘arbda Qoraqum sahrosi bilan tutashgan bu hudud uncha katta bo‘lmagan Xonyop kanali bilan sug‘oriladi. Sug‘orish uchun ancha qulay joy. Hozirda Xorazmning Xazorasp tumaniga qarashli shahar. Shu o‘rinda Xazorasp qal‘asining vujudga kelishi bilan bog‘liq afsona ham mavjud. Xorazm afsonasiga ko‘ra, bu qal‘ani bahaybat dev qurgan emish. Bu dev aldov yo‘li bilan bu yerga suv ichgani keladigan mingta qanotli otni qo‘lga kiritadi va ularning qanotini kesib, o‘ziga o‘rgatadi. Shu otlarning sara avlodlari tufayli shuhrat qozongan bu qal‘ani “Xazorasp” deya boshlaydilar. Y.G‘ulomov ma‘lumotiga ko‘ra, bu qal‘a hozirgi Xazorasp tumani hududida eramizdan avvalgi IV-III asrlarda vujudga kelgan. “Zubdatu-t-tavorix” asarining bosh qahramoni Rahimqulixon Xiva xonligi taxtiga chiqqunga qadar Xazorasp muzofoti hokimi bo‘lgan. Xazorasp asarda yigirma uch o‘rinda qo‘llanigan.

Bu shahar nomi asarda yetti o‘rinda qo‘llanilgan.

“Zubdatu-t-tavorix” asarida joy nomlaridan tashqari ko‘plab qal‘a, saroy, mavze, qo‘nomgohlar, cho‘l- biyobonlar, bog‘lar nomlari keltirilgan.

Altofi bila diyori Xivaq,

Ziynat topib o‘ylakim Xavarnaq.

Andin ko‘rubon base atoyo,

Osuda dil o‘ldilar baroyo,-⁸

⁷ Yuqoridagi asar. 113-bet

⁸ “Zubdatu-T- Tavorix. Tarixlar sarasi”. Nurboiy Jabborov. 2009. Toshkent. (36-bet)

deydi shoir. Masnaviydan keltirilgan bu parchada “Xivaq”, “Xavarnaq” toponimlari qo‘llanilgan. “Xivaq” bu hozirgi Xorazm viloyatining Xiva shahridir. “Xavarnaq” esa, Mesopotamiyada joylashgan. Hozirgi Najib shahriga yaqin bir qadimiy saroy. Saroy islomiyatdan ilgari qariyb ikki yuz yil muqaddam qurilgan bo‘lib, XII asr oxirlarida buzilib ketgan. Muallif bu atamadan Rahimqulixon vasfini madh etishda mohirona foydalangan. Shu o‘rinda “Xiva” nomi qanday paydo bo‘lganligi haqidagi rivoyatni keltirsak. Rivoyat qilinishicha, Nuh alayhissalom davrida dunyoni suv bosib qaytganidan so‘ng, payg‘ambar o‘z o‘g‘li Somga sayohatda davom etishini aytadi. U zot yo‘l yurib, bir cho‘lga kelib qoladi. Chanqoqdan madori qurigan karvon shu qumlikda to‘xtaydi. Suv qidirib, yerni kovlaganda darrov suv chuqadi. Undan chanqog‘ini qondirgan Som beixtiyor “hey, voh” deb yuboradi. Keyinchalik shu qumlikda bir qal’a bunyod ettiradi. Shu-shu “hey, voh” so‘zi “Xiva”ga o‘zgarib ketgan, deyishadi.

Undan tashqari asarga, Chakas, Changon, Qiz, Eshonchi, Yuzbel, Yangiqal’a kabi qal’a nomlari; Qaroburun, Qandi, Chordara, Pursi, Siyod, Yantoqli, Quyun mavze nomlari kiritilgan.

“Shanba kuni andin yakroni azimatni garmjavlon qilib, Qaboqli beshasining oshoqida Qiz qal’asining muqobalag‘asiga yetib, daryo sohilin ashrafi marohil qildi”⁹.

Bilamizki, Qiz qal’asi haqida juda ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud. Oddiy xalqni himoya qilish uchun kurashgan “Qirqqiz qal’asi” asarda bir o‘rinda keltirilgan.

Asar tahlilida onomastik birliklarning o‘rni alohidadir. Ayniqsa, mumtoz adiblar asarlari ijodida qo‘llanilgan atoqli otlarni o‘rganish tilshunoslik uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qiladi. Ogahiyning asarlari tarix, adabiyot, geografiya, tilshunoslik fanlari rivojiga katta hissasini qo‘shgan. “Zubdatu-t-tavorix” asarining o‘zi bir necha ilmiy tadqiqodlarni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu asarda qo‘llanilgan ismlar, etnik, geografik, lingvistik atamalar, bu atamalarning bugungi kundagi

muqobili, iste'molda qo'llanilish yoki qo'llanilmasligi jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Ogahiy asarlari shu kungacha juda ko'plab olim va professorlar tomonidan o'rganilganiga qaramay, hali bu asarlarning ochilmagan qirralari talaygina.

Inson o'z yashab turgan yurtiga, ajdodlariga, tarixiga doimo hurmat- ehtirom ruhida tarbiyalanib kelgan. Bizdan oldin yashab ijod qilgan tarixchi olimlar, adib-u yozuvchilar kelajak avlod uchun o'zlaridan boy meros qoldirganlar . Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Ogahiyning sajli nasrda bitilgan bu asari tarixiy va badiiy qimmatga egaliligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Ogahiyning asarlarini shu kungacha o'ndan bir qismi o'rganilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Nasrda va nazmda tengi yo'q olimning tarix,adabiyot, tarjimonlik borasida yaratgan asarlari xazina ombori bo'lsa, tadqiq qilinganlari bir sandiqni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Zubdatu -T- Tavorix. Tarixlar sarasi". Nurboy Jabborov. Toshkent. 2009
2. "Ogahiy ijodini o'rganish mamlakatimiz miqyosida". Kuchmuratova Nigina. "Pedagog" Respublika ilmiy jurnali.
3. Do'simov Z. Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" asarining leksik xususiyatlari haqida. Ogahiy abadiyati. Toshkent. O'zbekiston. 1999.
4. "Toponimika". S. Qorayev. Toshkent. 2006